

оскорбительный потенциал в результате переосмысления и иронического использования, другие, напротив, усиливают агрессивную окраску.

Ограничением исследования является преимущественная опора на письменные источники. Перспективы дальнейших исследований связаны с анализом устной разговорной речи, а также с проведением психолингвистических экспериментов, направленных на выявление восприятия гендерно маркированных инвектив адресатами.

Заклучение

Проведенное исследование позволило комплексно описать гендерно маркированную инвективную лексику современного русского языка с позиций прагматики и риторки. Установлено, что такие единицы выполняют дискредитационные, регулятивные, идентификационные, экспрессивные и манипулятивные функции, а также служат инструментом символической власти.

Решение проблемы недостаточной систематизации прагматических функций достигнуто посредством разработки классификации, учитывающей тип гендерной маркированности, коммуникативную интенцию и дискурсивный контекст. Теоретическая значимость работы заключается в уточнении понятийного аппарата гендерной лингвистики, практическая — в возможности применения результатов при анализе медиатекстов, политической риторки и повседневной коммуникации.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград : Перемена, 2002. — 477 с.
2. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. — М. : Языки русской культуры, 1999. — 896 с.
3. Кирилина А. В. Гендер: лингвистические аспекты. — М. : Институт социологии РАН, 1999. — 189 с.
4. Земская Е. А. Русская разговорная речь. — М. : Наука, 2004. — 384 с.
5. Шмелёв Д. Н. Современный русский язык. Лексика. — М. : Просвещение, 2007. — 335 с.

Dusmatov Hikmatillo Xaitboyevich, filologiya fanlari doktori, professor.

Farg'ona davlat universiteti. x.dusmatov@pf.fdu.uz

Husaynova Mahliyoxon Ma'rufjon qizi, Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti ORCID: 0009-0004-4888-7103

mahliyoxonhusaynova@gmail.com



O'ZBEK LATIFALARIDA SO'Z O'YINLARINING USLUBIY-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

<https://zenodo.org/records/18728884>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek latifalari matnida so'z o'yinlarining uslubiy va pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan. Latifalarda qo'llanilgan fonetik, leksik, morfologik hamda sintaktik so'z o'yinlari kulgili effektni yuzaga keltiruvchi asosiy ifodaviy vositalar sifatida tahlil qilingan. So'z o'yinlarining tagma'no, presupozitsiya va nutqiy vaziyat bilan uzviy bog'liqligi ochib berilib, ularning kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar iboralar: latifa, tag ma'no, pragmatik ma'no, kinoya, pressupozitsiya

STYLISTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF WORDPLAY IN UZBEK HUMOROUS TEXTS

Abstract: This article examines the stylistic and pragmatic features of wordplay in the texts of Uzbek anecdotes. Phonetic, lexical, morphological, and syntactic types of wordplay used in anecdotes are analyzed as the main expressive means that create a comic effect. The close relationship between wordplay, implicit meaning, presupposition, and speech context is revealed, and their role in achieving communicative purposes is highlighted.

Key words and expressions: humorous text, implicit meaning, pragmatic meaning, irony, presupposition.

СТИЛИСТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СЛОВЕСНЫХ ИГР В УЗБЕКСКИХ АНЕКДОТАХ

Аннотация: В данной статье исследуются стилистические и прагматические особенности словесных игр в тексте узбекских анекдотов. Фонетические, лексические, морфологические и синтаксические словесные игры, используемые в анекдотах, анализируются как основные выразительные средства, формирующие комический эффект. Раскрывается тесная взаимосвязь словесных игр с подтекстом, пресуппозицией и речевой ситуацией, а также освещается их роль в реализации коммуникативной цели.

Ключевые слова и выражения: анекдот, подтекст, прагматическое значение, ирония, пресуппозиция.

Kirish.

Latifalar ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan badiiy janrlaridan biri sifatida asrlar osha yashab, sayqal topib kelmoqda. Shu bois latifalarning lingvostilistik xususiyatlarini maxsus tadqiq etish milliy tilimizning lingvostilistik xususiyatlarini chuqur idrok qilishga imkon yaratadi. Hajman kichik bo'lsa-da, mazmunan ancha teran bo'lgan, jamiyat hayotining barcha qirralarini atroflicha qamrab oladigan o'zbek latifalarining nutq jarayonidagi ifoda imkoniyatlarini yoshlar ongiga singdirib borish, jahon xalqlarini o'zbek tilidagi hajviy-yumoristik mazmunli matnlarning lingvostilistik xususiyatlari bilan tanishtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Latifalar matni o'zining hajviy-yumoristik mazmuni bilan tinglovchining diqqat-e'tiborini tortadi va undagi yengil hazil-mutoyiba yoki hajviy-zaharxanda kulgi muayyan bir badiiy-estetik maqsadga qaratiladi. Shu maqsadda har bir latifa matnida kulgi yaratishning turli vosita va usullaridan keng foydalaniladi. Ular yordamida kulgili

vaziyatlar vujudga keltiriladi va latifa mazmunidan ko'zlangan asosiy maqsad ochib beriladi.

Ma'lumki, badiiy matnlar biror voqea-hodisa haqida axborot berishga mo'ljallangan bo'lib, ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra hikoya mazmunli, tasviriy, izoh mazmunli, didaktik, xabar mazmunli, buyruq mazmunli, hissiy ifoda mazmunli matn kabi turlarga bo'linadi. Latifa matnida hikoya, didaktik mazmun yetakchilik qiladi. Chunki har bir latifa matnida qandaydir voqea-hodisa hikoya qilinishi bilan birgalikda undan kelib chiqadigan didaktik mazmun – xulosa ko'zga tashlanadi. Xalq latifalari shaklan uncha katta bo'lmagan, ya'ni mikro matnlardan tashkil topadi. Badiiy uslubda minimal matn deyilganda biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan lavhalar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik, shu jumladan, latifalar tushuniladi

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Latifa janrining vujudga kelishi va uning xususiyatlari haqida folklorshunos olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Olimlar mazkur janrning paydo bo'lish jarayonini uzoq o'tmishga olib borib taqashadi. B.Suvanqulov latifa elementlarining "Avesto"da ham uchrashini ta'kidlab o'tgan[1]. I.Braginskiy esa ayrim qadimgi so'g'd hikoyatlari ("Savdogar va marjon teshuvchi xizmatkor hikoyati") [2] latifa janriga uyg'un ekanligini ta'kidlaydi. Insoniyat tarixidagi ilk latifalar to'plami sifatida qadimgi yunon tilida ommalashgan "Philogelos" – ("Kulgi shinavandalariga") to'plami e'tirof etiladi. U eramizning IV asrida yaratilgan deb taxmin qilinadi [3]. Latifa so'zi arab tilidan olinganda mutoyiba, hazil degan ma'nolarni anglatadi. Latifa xalq hajviyoti janrlaridan, tanqidiy mazmundagi qisqa yumoristik hikoya hisoblanadi.

Latifalar barcha xalqlar tillariga xos badiiy janr turlaridan biri bo'lib, ularning matni jahon tilshunosligida muayyan lingvistik hodisa sifatida ilmiy-nazariy jihatdan nisbatan ancha keng tadqiq etilgan, lekin o'zbek tilshunosligida latifalar matnining lingvistik xususiyatlarini yoritadigan fundamental tadqiqotlar olib borilmagan. Rus tilshunosligida nisbatan ancha keng talqin etilgan "kalambur" hodisasi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarda latifalar matniga qisman to'xtalib o'tilgan [4]. Bu tadqiqotlarda so'z o'yinlarining, asosan, hajviy-yumoristik, hazil-mutoyibaga xos qirralari ochib berilgan [5]. Kalamburlar – turli ma'nodagi so'zlarning ohangdoshligi yoki shaklan o'xshashligi asosida vujudga kelgan obrazli figuralarga asoslangan so'z o'yinlari ekanligi va asosan hajviy-yumoristik, hazil-mutoyiba bo'yog'iga ega bo'lgan fikrlar bo'lib, ko'pincha latifalar matnida foydalanilishi qayd etilgan [6]. Shuningdek, ba'zi ilmiy manbalarda yozma adabiyotdagi latifalar janriga ham to'xtalib o'tilgan [7].

Natija va muhokama.

Latifalar mazmuniga qarab jamiyat hayoti va unda ro'y berayotgan juda ko'p hodisalar haqida ma'lumot olish mumkin. Har bir latifa zamirida xalqning u yoki bu muammolarning asl ildizi, kelajak haqidagi orzu-umidlari o'z ifodasini topadi. "Men kirmaydigan joy ekan", deb nomlangan qadimiy latifalardan birida ifodalangan kichik hajviy lavha buning yorqin misoli bo'la oladi:

Afandi qozi kalonlar ziyofatda o'tirgan uyga kirayotib, ostonaga qoqilib ketibdi.

– Ko'r bo'ldingmi?! – deb jerkibdi qozi.

– Ha, ko'r bo'ldim, – debdi Afandi ko'zlarini yumib. – Bu yerda kim bor?

– It bor, eshak bor, to'ng'iz bor, ahmoq! – deb baqiribdi qozi.

– Unday bo'lsa men kirmaydigan joy ekan, bemalol o'tiraveringlar, – deb chiqib ketibdi Afandi [8].

Yuqoridagi latifada tilga olingan muammolardan biri jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish kuchayib ketganligi va buning natijasida kishilarni toifalarga ajratib muomala qilish avj olganligidir. Latifaning qozi tomonidan aytilgan “It bor, eshak bor, to‘ng‘iz bor, ahmoq!” gapiga javob tariqasida aytilgan so‘nggi “Unday bo‘lsa men kirmaydigan joy ekan, bemalol o‘tiraveringlar” jumlasida ana shu muammoning ijtimoiy ildizi ayovsiz ravishda ochib tashlangan. Buning uchun latifa qahramoni qozining so‘zlarini o‘ziga nisbatan do‘q-po‘pisa emas, balki, bir jihatdan ko‘chma ma’noda (agar sizlar it, eshak, to‘ng‘iz bo‘lsalaring deb), ikkinchi jihatdan o‘z ma’nosida, ya’ni o‘zi kirgan joyda it, eshak, to‘ng‘iz bor ma’nosida tushunganday qilib ko‘rsatishi hamda shunga yarasha javob qaytarishi asosiy rol o‘ynagan.

Tilning ifoda imkoniyatlari cheksiz, faqat ulardan hozirjavoblik bilan o‘rinli foydalana olishgina ana shunday kulgili vaziyatlarni yuzaga chiqaradi. Hozirjavoblik (improvizatsiya) va zakiylik o‘zbek milliy askiyasi, latifa va qiziqchililigi xos eng asosiy xususiyat hisoblanib, bular kundalik hayotda ham nutqga espressivlik, emosionallik bag‘ishlaydi:

Er: Xotin, qara, mana shu ketayotgan eshak senga qarindosh bo‘ladi.

Xotin: Ha, mana shu kyetayotgan eshak erim tomondan qarindosh bo‘ladi.

(Hojiboy Tojiboyev ijodidan)

O‘zbek milliy latifalarining aksariyatida go‘zal hozirjavoblik bilan birga, “tasdiqlab turib, mot qilish” an‘anasi yetakchilik qiladi. Bunga yanada aniqlik kiritish uchun quyidagi misolga murojaat qilamiz:

- Azizim, meni sevasizmi?
- Sevaman!
- Gapingiz rost bo‘lsa, chekishni tashlang...
- Tashlayman!
- Ichishni ham tashlaysiz-a?
- Ha!
- Maoshingizni menga olib kelib berasizmi?
- Beraman maoshimni hammasini!
- Voy, meni deb joningizdan ham voz kechishga tayyormisiz?
- Tayyorman! Nima qilaman bunaqa hayotni?

O‘zbek milliy latifalari qahramoni Afandi obrazi bilan bog‘liq latifalarda ham, shuningdek, boshqa xalqlarning kulgi qo‘zg‘atuvchi latifalarida ham aynan ana shu ko‘chma va tagma’noga asoslangan hozirjavoblik uslubi yetakchilik qiladi:

Atoqli rus shoiri Vladimir Mayakovskiy politexnika institutiga uchrashuvga boradi. U yerda nutq so‘zlayotib:

– Men ruslar orasida o‘zimni rus deb his qilaman, gruzinlar orasida esa gruzin... – deydi. Shu payt:

– Ahmoqlar orasida-chi? – deb baqiradi kimdir zaldan.

– Ahmoqlar orasida birinchi bor bo‘lishim, – deb javob beradi shoir o‘sha zahotiyoq.

Latifalar asosan improvizatsiya – hozirjavoblik asosida yuzaga kelganligi sababli ularda nutqiy birliklarning ma’lum bir vaziyatlarga xoslangan shakllari ko‘zga tashlanadi. So‘zlovchi yoki yozuvchi tinglovchi yoki o‘quvchini hayratda qoldirish, kulgi uyg‘otish, komik vaziyatni yuzaga keltirish uchun noodatiy hodisalar, kutilmagan va aql bovar qilmas yechimga ega, qahqahali kulgi uyg‘otuvchi mazmundagi matnga murojaat etishi lozim bo‘ladi. Quyidagi latifada ana shunday vaziyatni kuzatish mumkin:

Bemor vrachga debdi:

- Doktor, aytishlaricha, chiroylilik ham bir kasallik emish.
- To‘g‘ri, lekin sira tashvishlanmang. Siz soppa-sog‘siz [9].

Yuqoridagi latifa matni mazmuni zamiriga singdirilgan fikrga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda vrach qabuliga ataylab kelgan bemor unga o‘zining chiroyli ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi, vrach esa bunga e‘tibor qaratmaydi va hozirjavoblik asosida “chiroylilik kasallik, ammo siz chiroyli emassiz, shuning uchun soppa-sog‘siz” ma’nosida javob qaytaradi. Uning bu javobi zamirida kuchli kulgili yakun va kinoyaga asoslangan hajviy nutqiy vaziyat yuzaga kelganini ko‘rish mumkin. Agar latifadagi ikkinchi gapni matndan va u so‘zlangan nutqiy vaziyatdan ajratib olsak, kulgili holat yuzaga kelmaydi, berilgan savolga oddiy javobga aylanib qoladi. Yuqoridagi matn tarkibida esa bu gap muayyan emosional-ekspressiv bo‘yoq – kinoya mazmuniga ega bo‘lgani uchun ham kulgini keltirib chiqarmoqda.

Shunday xususiyatlari uchun, ayniqsa, matn tagma’noga, zakiyona o‘ylab topilgan gaplarga boyligi uchun latifalarni barcha yoshdagi kishilar sevib tinglaydilar, o‘qiydilar va o‘zlari ham hikoya qilishni yoqtiradilar. Og‘zaki nutqdagi latifani hikoya qilishda so‘zlovchi maxsus ohang va xatti-harakatlardan samarali foydalanishi kulgili vaziyatni yaratishning eng muhim omillaridan biri sanaladi. Chunki latifalar vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri kutilmagan mazmuniy yakunga ega bo‘lgan matn orqali tinglovchi yoki o‘quvchini kuldirishdir. Ma’lumki, kulgili vaziyatni yaratish uchun so‘zlovchi yoki yozuvchi tilning barcha imkoniyatlaridan o‘rinli va samarali foydalanishga majbur bo‘ladi. Natijada latifa matnida bir qator emosional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘z va iboralar ishlatilishiga zamin yaratiladi. Latifalar matnini tuzish va kontekstda so‘z o‘yinini shakllantirishda latifago‘y dastlab so‘z o‘yiniga moyil so‘zlarni tanlab oladi-da, keyin ularni nutqiy vaziyatda o‘ynatishga harakat qiladi. Ana shu jarayon so‘zlovchining individual hosilasi bo‘lib xizmat qiladi:

Yigit bilan qiz rasman nikohdan o‘tish uchun nikoh uyiga kelishdi.

Yigit: – Azizam, endi mening familiyamga o‘tasizmi?

Qiz: – Yo‘q, o‘tmayman. O‘zimning familiyam yaxshi.

Yigit: – Voy, hozirdan gap qaytaryapsizmi?

Qiz: – Menga do‘q qilib gapirmang.

Shunda nikohni tasdiqlovchi xodim: – Kelinglar, yaxshisi bitta taklif bor. Ikkalangizning familiyangizdan faqat bir bo‘g‘in olib, yangi familiya qilsak. Masalan, sizning familiyangiz nima, kuyov bola?

Yigit: – Ahmedov.

– Sizniki-chi, kelin bola?

Qiz: – Maqsudova.

Tabriklayman, sizlarni Ahmaqovlar oilasi deb e‘lon qilaman!

Ushbu matnda qo‘llangan uslubiy sintagmalash, palindrom, lisoniy tabdil kabi lingvostilistik hodisalar qorishiq (sinkretik) holda latifalarning ko‘ptalqinli jihatlarini ta’minlagan.

Xulosa.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri sifatida latifalar haligacha o‘ta yashovchanligi bilan alohida ajralib turuvchi janr sanaladi. Uning paydo bo‘lishi va tarixiy semantik taraqqiyoti uzoq asrlarga borib taqaladi. Shuning uchun latifalar lingvostilistikasini o‘rganish jarayonida nafaqat bugungi kun o‘zbek tili imkoniyatlari, balki o‘zbek tilshunosligi uslubiyatini tarixiylik nuqtai nazardan ham ko‘rib chiqish, latifalar matnida qo‘llanilgan fonetik, leksik-grammatik vositalarni shu

ji hatdan tadqiq etish muhim o'rin tutadi. Tarixiylik nuqtai nazardan olib qaralganda latifalar matnida jamiyat hayotining turli davrlariga oid til va nutq birliklari, ularning o'ziga xos lingvostilistik xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi va bu hodisa muayyan bir davr o'zbek tili, ayniqsa, badiiy nutqning og'zaki shakliga xos ifoda imkoniyatlari haqida atroflicha tasavvur hosil qilish, shuningdek, ayrim lingvostilistik vosita va usullarning tadrijiy takomilini aniqlash borasida qulay imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Суванкулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2007. 30-бет.
2. Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. –М.: АН СССР, 1956. – С. 213-214.
3. <https://www.kommersant.ru/doc/4684074>
4. <https://www.litdic.ru/kalambur/>
5. Кузнецова А. Каламбур в газетном тексте. – Газета “Культура” №24 [54] 23.12.2000.
6. Игнатъева Т. Языковая игра в художественной литературе: Автореф. дисс... канн. филол. наук. – Рязань, 2012.
7. Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. –Б. 18.
8. Афанди латифалари WEBSPEKTR интернет иловаси.
9. http://www.parvona.com/publ/sms_latifa_sms_latifa/eng_sara_latifalar

Dusmatov Hikmatillo Xaitboyevich, filologiya fanlari doktori, professor.

Farg'ona davlat universiteti. ORCID: 0009-0005-4299-6170 x.dusmatov@pf.fdu.uz

Niholjonova Navbahor Inomjonovna, Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti.



“OLTIN BESHİK” VA “SANGI OINA” RIVOYATLARI: TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO‘QIMA

<https://zenodo.org/records/18728888>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati bilan bog'liq “Sangi oina” va “Oltin beshik” rivoyatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. “Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy” hamda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar asarlari orqali rivoyat va tarixiy haqiqat o'rtasidagi nisbat ochib berilgan. Shuningdek, mazkur rivoyatlarning Qo'qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o'rni va badiiy to'qima xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, Sangi oina, Oltin beshik, rivoyat, tarixiy haqiqat, Qo'qon xonligi.